



**Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini
rivojlantirishning ilmiy-metodologik asoslari**


G'aybilloeva Sharofatbegim
Buxoro xalqaro universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishning ilmiy-metodologik asoslari keng yoritilgan. Kitob o'qishning shaxsning intellektual, psixologik va fiziologik rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'siri, xususan, nutq, tasavvur, tafakkur, xotira va hissiy sezgirlikni shakllantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Jamiyatda kitob o'qish madaniyati pasayishiga sabab bo'layotgan ijtimoiy, madaniy va texnologik omillar ko'rsatib o'tiladi. Kitob, o'qish, kitobxonlik savodxonligi, kitobxonlik kompetentligi kabi tayanch tushunchalarning mazmuni pedagogik nuqtai nazardan sharhlanib, bolalarda kitobxonlikni shakllantirish jarayonining maqsadli, izchil va tizimli tashkil etilishi zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, bolalar adabiyotining estetik, ma'naviy va tarbiyaviy ahamiyati yoritilib, o'quvchilarning kitobga qiziqishini oshirishda pedagogik-psixologik sharoitlar muhimligi ta'kidlangan.

KALIT SO'ZLAR: kitobxonlik, boshlang'ich sinf o'quvchilari, kitobxonlik ko'nikmasi, o'qish madaniyati, mutolaa, bolalar adabiyoti, pedagogik-psixologik shart-sharoitlar, kitob, kitobxonlik savodxonligi, kitobxonlik kompetentligi, intellektual rivojlanish, estetik dunyoqarash, o'quv jarayoni.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitob o'qishning shaxsni intellektual, psixologik va fiziologik jihatdan rivojlanishiga yordam beruvchi ta'sirlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Binobarin, kitob o'qish orqali o'quvchilarning nutqi rivojlanadi; nutqi (nutq lug'ati)ni boyiydi; tasavvuri o'sadi; tafakkuri rivojlanadi; xotirasi mustahkamlanadi; hissiyoti (hissiy sifatlar, xususan, hamdardlik hissi) tarbiyalanadi; "ijtimoiy idroki" shakllanadi. Ayni o'rinda shuni ham qayd etib o'tish kerak, shaxsda "ijtimoiy idrok"ning shakllanishi unda yashovchanlik qobiliyatining rivojlanishini ta'minlaydi. Bu esa boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning kitob o'qishga ijobiy yondashishlariga erishish dolzarb pedagogik vazifalardan biri ekanligini tasdiqlaydi.





Ushbu vazifani hal qilish orqali esa boshlang'ich ta'lim davridan boshlab shaxs (o'quvchilar)ni ijtimoiy munosabatlarga izchil, to'g'ri yo'naltirish imkonini beradi. Zamonaviy jamiyatda qaror topgan ayrim holatlar ta'lim sohasining jadal rivojlantirish yo'lida to'siq bo'lmoqda. Xususan, jamiyat a'zosi bo'lgan alohida aholi qatlamining real daromadlari o'sganligiga qaramay, kitoblar hamda bosma OAVga bo'lgan talab pastligicha qolmoqda; kitob o'qish uchun talab qilinadigan bo'sh vaqt tarkibiy tuzilmasining o'zgarishi uning nufuzi pasayishiga olib kelmoqda; ta'lim sohasida savodxonlik va o'qish madaniyatini rivojlantirishga nisbatan e'tibor pasaymoqda: a) umumiy o'rta ta'limda - bitta til (masalan, rus tili va adabiyoti, yozma matnlari bilan ishlash)ni o'quv predmeti sifatida o'qitish uchun ajratilgan soatlarning qisqarganligi; b) o'rta maxsus ta'limda - kasbiy tayyorgarlik (OTM, qo'shimcha ta'lim, malaka oshirish) darajasida kitobxonlik kompetentsiyasi, yozma matnlar bilan ishlash mahoratini rivojlantirishga oid tizimli dasturlarning mavjud emasligi; axborot texnologiyalarining intensiv rivojlanishi kitob o'qishni ifodalovchi ijtimoiy-madaniy muhit doirasining torayishiga olib kelmoqda; nazariy jihatdan taklif etilayotgan kitob va kitob mahsulotlari (badiiy, ma'lumotli, ilmiy-ommabop, maxsus adabiyotlardan iborat mahalliy va tarjima asarlari) sifatining talab darajasi emasligi ko'plab hududlarda kitob o'qishning zamonaviy ijtimoiy-madaniy muhitini shakllantirishga to'sqinlik qilmoqda; ta'lim muassasalari, kutubxonalar, nashriyotlar, kitob savdosida kitob o'qishning nufuzini ko'taradigan, bu boradagi harakatni qo'llab-quvvatlaydigan hamda rivojlantiradigan malakali kadrlarning yetishmasligi kitobxonlar doirasini kengaytirish yo'lidagi to'siq bo'lmoqda. Eng achinarli jihati yuqorida qayd etilgan muammoning yoshlar orasida kitob o'qishga bo'lgan qiziqishning pasayishi, ularning kitobxonlik madaniyatiga ega emasligidir. Falsafa kategoriyalarining mohiyatiga tayanib aytiladigan bo'lsa, har qanday oqibat (holat)ning yuzaga kelishi o'z-o'zidan bo'lmaydi, balki qanday sabablar negizida yuz beradi. Shu nuqtai nazardan olganda O'zbekistonda yoshlar, xususan, talaba va o'quvchilar o'rtasida kitob o'qishga bo'lgan salbiy munosabatning shakllanishi, ularning kitobxonlik malakalariga ega bo'lmasligini bir qator sabablar bilan izohlash mumkin. Chunonchi: 1) badiiy, ma'rifiy, ilmiy-ommabop, tarbiyaviy, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan adabiyotlarni chop etish, ular bilan ta'lim muassasalarini ta'minlash, milliy va jahon adabiyoti namoyandalarining yetuk asarlarini saralash, tarjima qilish ishlari puxta o'ylangan





tizim asosida tashkil qilish, ta'lim va madaniyat muassasalari uchun kitob xarid qilishga mablag'lar yetarli darajada mavjud bo'lgan manbalar hisobidan jalb etish yo'lida jamiyat miqyosida faollikning yetishmayotganligi; 2) kitob sotishga ixtisoslashgan korxonalar tomonidan ta'lim muassasalari, kutubxonalar va mahallalarda yangi kitoblar taqdimotlarini o'tkazish, mutolaa madaniyatini oshirish, shu jumladan, ommaviy-axborot vositalari orqali targ'ibot-tashviqot qilishga qaratilgan tadbirlarning yuksak talablar darajasida emasligi. Har qanday taraqqiyot ijtimoiy rivojlanishga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Axborot texnologiyalari jadallik bilan rivojlanayotgan mavjud sharoitda shaxs ehtiyojlarini qondiruvchi ma'lumotlarni tarqatuvchi OAV soni, turining ko'payib, ular qamrab olgan ko'lamning tobora kengayib borayotganligi kitob va kitobxon mavzusining yanada dolzarblashayotganligida ikki jihatni ko'rish mumkinligini tasdiqlaydi: "yaxshi tomoni, mutolaa ehtiyoji yuksalib, shaffoflashib borayotganligi; xavotir tarafi ommaviy kitobxonlik susayib, betiyiq kitoblarning rastalarda ko'payayotganligi". Avval aytib o'tilganidek, badiiy adabiyotlar turli yoshdagi kishilarga qaysi yosh davrida bo'lishidan qat'i nazar nutq, tasavvur va dunyoqarashni boyitish, tafakkurni kengaytirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga, "insonning ma'nan yuksalishiga, salohiyatini boyitishga xizmat qiladi". Global axborotlashuv sharoitida ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy, madaniy qiymatga ega bo'lmagan kitob mahsulotlarining yaratilayotganligi, badiiy, hatto ilmiy adabiyotlarning yuqori saviya, amaliy qiymatga ega emasligi o'z navbatida shaxsning fikrlash qobiliyati, tafakkur salohiyatiga ega bo'lishiga erishishni ijtimoiy ehtiyojga aylanishini ta'minladi. Jamiyat a'zolarining ong, tafakkur va keng dunyoqarashga ega bo'lishlariga erishishning muhim omili sifatida kitob o'qishni, kitobxonlikni keng targ'ib qilish masalasini tobora dolzarblashishiga olib kelmoqda. M.Yu.Gudovanning yondashuviga ko'ra kitob o'qishni uch holatga ko'ra, ya'ni: faoliyat, ijtimoiy institut hamda madaniy amaliyot sifatida o'rganish kerak. Bizning fikrimizcha, kitob o'qish jarayon hamda shaxs faoliyatining muayyan ko'rinishi, kitobxonlik esa kitob o'qish faoliyatini maqsadli, izchil va samarali tashkil etish asosida o'zlashtirilgani sifat sanaladi. O'z mohiyatiga ko'ra jarayon va faoliyat uni tashkiliy-metodik jihatdan to'g'ri, oqilona, tizimli tashkil etishni taqozo qiladi. Shunga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoni ham pedagogik-psixologik talablarga ko'ra maqsadli, izchil va tizimli tashkil etilishi lozim.





Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish muammosining umumiy mohiyatini yoritishda dastlab tayanch tushunchalarni ajratish hamda ularning mazmunidan xabardor bo'lish tadqiqiy xarakterga ega pedagogik faoliyat yo'nalishini to'g'ri belgilash, sinovdan o'tkaziladigan nazariy g'oya va farazlarni aniq ifodalash, kutiladigan natijani oldindan to'la tasavvur etish imkoniyatini ta'minlaydi. Shu sababli ilmiy tadqiqotni olib borishda muammo asosini tashkil etuvchi, uning mohiyatini yorituvchi tayanch tushunchalarni ajratib olish va ularni pedagogik nuqtai nazardan yoritishga e'tibor qaratildi. Pedagogika sohasida shaxs, shu jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilari hamda kitobxonlik o'rtasidagi o'zaro munosabatni yoritishda "kitob", "o'qish", "kitob o'qish" (yoki "mutolaa"), "kitobxonlik savodxonligi", "kitobxonlik", "kitobxonlik faoliyati", "kitobxonlik ko'nikmasi", "kitobxonlik malakasi", "kitobxonlik kompetentligi" hamda "kitobxonlik madaniyati" tushunchalari tayanch tushunchalar - asosiy kategoriyalar sifatida qabul qilingan. Quyida mazkur tushunchalar negizida pedagogika va psixologik yo'nalishlarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda shaxs (xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilari)ning kitobga, kitob o'qishga bo'lgan munosabatining mazmuni ochib beriladi. Tadqiq etilayotgan muammoga doir manbalarning barchasida arabchadan tarjima qilinganda "yozilgan, muqovalangan asar" ma'nosini anglatuvchi "kitob" tushunchasi deyarli bir xil deya ta'riflanadi: ma'lum matnli varaqlardan iborat, juzlab tikilgan, muqovalangan, hajmi 48 varaqdan kam bo'lmagan bosma (qadimgi qo'lyozma) asar; bosma hamda qo'lyozma (qadimiy) asosidagi matnli va grafikli ma'lumotlarni o'z ichiga olib, juzlab tikilgan yoki alohida qog'oz yoki daftar sahifalaridan iborat qattiq muqovali nodavriy chop etiladigan nashr mahsuloti turlaridan biri. Qolaversa, "ko'p asrlardan buyon insonning yo'ldoshi bo'lib kelayotgan qadimgi madaniy atribut" bo'lgan "kitobdan dastlab voqeliklar, ilmiy bilimlarni yozib borish uchun foydalanishgan, so'ngra kitob chop etishning va badiiy adabiyotning yaratilishi bilan bog'liq holda bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazishning elementiga aylandi" Anglanganidek, kitoblarning eng muhim xususiyati ularning qo'lyozma (asosan, qadimgi adabiyotlar) va bosma shaklda bo'lishi, matnli yoki grafikli ma'lumotlarni o'z ichiga olishi, muqovalanishi sanaladi. Global axborotlashuv sharoitida kitoblar, nafaqat qo'lyozma va bosma, shu bilan birga elektron shaklda ham mavjud bo'ladi. Kitoblar orasida bolalar uchun mo'ljallangan kitoblar o'ziga xos o'rin





tutadi. Bu turdagi adabiyotlar ham boshqa turdagi kitoblar kabi borliq to'g'risidagi axborotlarni jamlovchi kishilik taraqqiyoti tajribasini o'zida ham etuvchi manbadir. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarini ham kitobga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishlariga erishishda bolalar adabiyotlarini shunchaki ermak, o'yinchoq deb emas, balki ularni intellektual, hissiy, axloqiy madaniyatini shakllantirishning eng samarali vositasi sifatida qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Zero, kitob va kitob o'qish "yosh avlodning ma'naviyatini yuksaltirish, milliy adabiyotimiz va san'atimizni yanada rivojlantirish, yoshlarni milliy - qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash" da o'ziga xos o'rin tutadi. Ayni o'rinda shuni ham qayd etib o'tish zarur, kitob "bolalarni qiziqitira olishi, zavqlantirishi, hayratlantirishi, to'lqinlantirishi kerak". Bolalar adabiyotlari (bolalar uchun mo'ljallangan badiiy asarlar)ning eng muhim didaktik ta'sirlaridan yana bid - bolalarda estetik dunyoqarash (estetik ong, his-tuyg'u, did, ideal, sezgi, tasavur, tafakkur hamda qarash)ni shakllantirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi. Estetik dunyoqarashning shakllanishi hamda rivojlanishi bolalarni hissiy jihatdan kamol topishiga yordam beradi. Hissiyot rivojlanishining eng muhim jihati - bolalar atrofdagilarga, borliqqa, tabiatga nisbatan befarq, loqayd bo'lmaydi. Ming afsuski, "bugungi kunda o'qish umummadaniy, estetik, hissiy ehtiyojlarini qondirishga emas, balki eng oddiy axborot olish ehtiyojini qodirish"ga yo'naltirilmoqda. Bolalarning kitob bilan muloqoti uni o'qishda ko'rinadi. Mohiyatan o'qish "ijtimoiy ahamiyatli axborotlar, kasbiy va kundalik faoliyatni tashkil etishda zarur bo'lgan bilimlar, avval va hozirda madaniy jihatdan qadrlil bo'lgan tarixiy hamda zamonaviy voqealar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zlashtirishning muhim usuli"dir. Pedagogik manbalarda o'quvchilar, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan tashkil etiladigan faoliyatning asosiy turlari o'yin, mehnat va o'qish ekanligi qayd etib o'tiladi. O'yin faoliyati ixtiyoriylikka asoslanib, o'quvchilar tomonidan borliqni anglash, amaliy harakatlarni tashkil etish ko'nikma, malakalarini o'zlashtirish, kattalarning harakatlarini imitatsiyalash uchun imkoniyat yaratiladi. Mehnat va o'qish faoliyatlari majburiylik xususiyatiga ega. Ular orqali o'quvchilar mehnat va o'qish (ta'lim olish)ni ijtimoiy zaruriyat ekanligini anglaydi, muayyan turdagi mehnat faoliyatini bajarishga oid ko'nikma va malakalarni o'zlashtiradi, uni tashkil etish jarayonida ijobiy fazilatlar - mehnatsevarlik, tartiblilik, intizom, o'zgalarning mehnati hamda mehnat mahsulotlariga ijobiy munosabatda bo'lish, ularni asrash, ulardan tejamkorlik bilan





foydalanish, o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlik, mas'uliyat kabilarni o'zlashtirib boradi. Garchi o'qish boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyatida o'yin va mehnat kabi asosiy o'rinni egallasa ham ushbu jarayonni tashkil etish o'z-o'zidan ro'y bermaydi. Boshlang'ich sinflarda o'qish jarayonini samarali, muvaffaqiyatli tashkil etish o'quvchilarda kitobxonlik ko'nikmalarini nafaqat shakllantirish, shu bilan birga rivojlantirish muayyan pedagogik-psixologik shart-sharoitlarning mavjudligi, ularning individual-shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish orqali ta'minlanadi.

